

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ISKANDAROV NURBEK SHERIFBOYEVICH

**JISMONIY YETUKLIK FENOMENI VA UNING ETNODIDAKTIK
MOHIYATI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on philosophical sciences**

Iskandarov Nurbek Sherifboyevich

Jismoniy yetuklik fenomeni va uning etnodidaktik mohiyati 3

Искандаров Нурбек Шерифбоевич

Феномен физической зрелости и его этнодидактическая сущность 21

Iskandarov Nurbek Sherifboevich

The DPhenomenon of physical maturity and its ethnodidactic essence 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ISKANDAROV NURBEK SHERIFBOYEVICH

**JISMONIY YETUKLIK FENOMENI VA UNING ETNODIDAKTIK
MOHIYATI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.3.PhD/Fal626 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Abilov O'rol Murodovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№46-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan bugungi biofizilogik, ekologik, texnologik, genetik o'zgarishlar inson omiliga, uning jismoniy va intellektual faolligiga alohida talab qo'yimoqda. Rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan iste'molchilik, gipodinamiya, vazn orttirish, jismoniy mehnatning avtomatlashishi va mexanizatsiyalashishi, ayniqsa, pandemiya sababli xatti-harakatlar doirasining cheklanishi, farmasevtik vositalarning ko'pincha aks ta'sir etayotgani kabi omillar insonning jismoniy va intellektual faolligini oshirishga mutlaq yangicha yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, avvalo, insonning salomatligini asrash va mustahkamlashga qaratilgan jismoniy yetuklik darajasini oshirish yo'llari, mexanizmlari, usul-vositalarini aniqlash va uni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda, inson salomatligi muammolari doirasida o'n minglab ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, salomatlik fenomeni, shaxsning jismoniy va ma'naviy yetuklik darajasi, sog'lom turmush tarzi, inson salomatligini asrash va tiklash, jismoniy madaniyatning ijtimoiy, antropologik, psixofiziologik va nevrologik muammolari bilan bog'liq tadqiqotlar shular jumlasidandir. Ammo bugungi ijtimoiy hayot shuni ko'rsatmoqdaki, inson salomatligiga ijobiy ta'sir qiluvchi omillarni, mezonlarni va u bilan bog'liq jismoniy yetuk shaxsni shakllantirishning zamonaviy etnodidaktik usul-vositalarini falsafiy jihatdan tadqiq qilish ilmiy jamoatchilikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning salomatligini asrash va mustahkamlash, ayniqsa, yoshlarni sog'lomlashtirishda jismoniy va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Bugungi kunda sport sog'lamlashtirish jarayonlarning natijadorligi Yangi O'zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog'liq ekanini anglagan holda ma'suliyat bilan harakat qilishimiz lozim"¹. Shu ma'noda bugungi kunda jismonan sog'lom avlodni shakllantirish va ularning jismoniy madaniyatini yanada yuksaltirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini talab etadi. Ayniqsa, jismoniy yetuklik fenomeni va uning etnodidaktik mohiyatining bugungi kundagi o'rnini ilmiy tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 4- noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148-son

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. –Б. 223.

“Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi O‘RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Salomatlik fenomeni, jismoniy yetuklik masalalarini tadqiq qilish g‘arb olimlari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, jismoniy yetuklik muammosini ma‘naviy yetuklik bilan uyg‘unlashtirish, inson salomatligi, jismoniy yetuklikning ayrim jihatlarini Gomer, Sukrot, Platon, Gippokrat, Galen, Aristotel kabilar o‘rganishgan va bu mavzuini ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida muhokama qilishgan. Diogen, Seneka, Epektet kabi stoiklar esa jismoniy yetuklik muammosini ma‘naviy yetuklik bilan uyg‘unlashtirish texnologiyasini yaratganlar.¹ Shuningdek, Jismoniy yetuklik muammolari Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mifologiyasida, xalq ertaklari va etnodidaktikasida yaqqol ifoda etilgan. Jismoniy yetuklikning ayrim jihatlarini R.Dekart, S.I.Gessen, Gippokrat, XX asrda esa Ye.V.Bachilo, E.Fromm² kabi olimlar tadqiq etishgan.

MDH olimlari jismoniy yetuklik muammosini tibbiyot, pedagogika, fiziologiya, ekologiya bilan bog‘lab tadqiq etishadi. Bu o‘rinda A.G.Shedrina, V.P.Guba, S.V.Popov, N.L.Pirnazorva³larni ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin.

O‘zbekistonlik olimlardan Sh.I.Karimov, G.I.Shayxova, Sh.I.Allamuratov, A.A.Qodirov, N.U.O‘rinboyev⁴ kabi tadqiqotchilar ushbu mavzu doirasidagi

¹ Qarang: И.Гомер. Илиада.-Москва: “Follo, 2020; Геродот, История,-Москва: ОПМА медиагрупп, 2019; Платон, Сочения в трех томах. Том. 3. Часть 1.-Москва: Мысль, 1971; Аристотел. Сочинения в четырех томах. Том 4.-Москва: Мысль, 1983; Антология кинизма. Фрагменты, сочинения кинических мыслителей,- Москва: «Наука», 1984; Сенека А.Л. Нравственные письма к Луцилию.-Москва: АСТ, 2021; Этикет, Беседы.-Москва: АСТ, 2021; Римские стоики.-Москва: «Республика». 1995.

² Декарт Р. Сочинения в 2 т.: Пер. с лат. и франц. Т. 1/Сост., ред., вступ. ст. В. В. Соколова. М.: Мысль, 1989. 654 с; Гессен С.И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию/Отв. ред. и сост. П. В. Алексеев. — М.: «Школа-Пресс»,. 1995.-448 с; Гессен С.И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию/Отв. ред. и сост. П. В. Алексеев. - М.: «Школа-Пресс»,. 1995.-448 с; Гиппократ. Избранные работы. — Москва: АСТ, 1999; Бачило Е.В. История медицины. Конспект лекций — Москва: ЭКСМО, 2007. - 160 с; Фромм Э. Здоровое общество. — Москва: АСТ, 2019. -528 с;

³ Щедрина А.Г. Здоровый образ жизни: методологические, социальные, биологические, медицинские, психологические, педагогические, экологические аспекты. - М.: Букинист, 2007. - 144 с; Губа В.П. ва б. Научно-практические и методические основы физического воспитания учащейся молодежи : учебное пособие. - М.: “Сов.спорт”, 2008; Попов С.В. Валеология в школе и дома : о физическом благополучии школьников. — Санкт-Петербург: Союз, 1997. — 256 с; Пирназорва Н.Л. ва б. Научные основы физического воспитания студентов. — Новосибирск: Изд.СГУПС, 2010.

⁴ Соғлом овқатланиш саломатлик мезони. Академик Ш.И.Каримов тахрири остида. — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015; Шайхова Г.И. Овқатланиш гигиенаси. — Т.: “Ўқитувчи”, 2011; Алламуратов Ш.И. Физическая культура и здоровой образ жизни. — Т.: ТИТАП, 2011; Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. — Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси давлат илмий нашри, 2005; Ўринбоев Н.У. Барқарор тараққиётни таъминлашда соғлом турмуш тарзининг ўрни. Фалсафа.фан.ном.дисс...автореферати. — Тошкент: ЎзМУ, 2005.

muammolarni fragmentar tarzda o'rganganlar. Ya'ni aynan tadqiqot obyekti sifatida falsafiy jihatdan tadqiq qilmaganlar. Ushbu holat bevosita mavzuni zamonaviy yondashuvlar asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan va "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy yetuklik fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini etnopedagogik (etnodidaktik) meros asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

salomatlik va jismoniy yetuklik fenomenlarining etnopedagogik (etnodidaktik) merosda namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish;

jismoniy yetuklikning Sharq va G'arb etnopedagogikasi (etnodidaktikasi)da ideallashuvining funksional jihatlarini yoritish;

jismoniy yetuklik va ma'naviy yetuklikning dialektik bog'liqligining ijtimoiy-falsafiy, tibbiy-antropologik, etnopedagogik mohiyatini ochib berish;

Yangi O'zbekistonda jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasining jismoniy yetuklik modelini yaratishga deterministik ta'sirini yoritish va taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti inson salomatligi va jismoniy yetukligi fenomenlarining etnopedagogik (etnodidaktik) asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti salomatlik va jismoniy yetuklikning inson hayotiga, ijtimoiy kreativ faoliyatiga ta'sirini falsafiy aspektda asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, retrospektiv tahlil, obyektivlik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, intervyu, kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

etnopedagogik merosda jismoniy yetuklik va ma'naviy yetuklikning dialektik tarzda uyg'un kelishi hamda ularning negizi o'zaro gumanistik mohiyatga ega ekanligi falsafiy asoslangan;

salomatlik falsafasining ijtimoiy faollikka xos ilmiy-nazariy, tibbiy-antropologik, ijtimoiy-falsafiy asoslari sog'lom turmush tarzini joriy etishda va aholi salomatligini tiklashda funksional o'ringa egalligi mantiqiy dalillangan;

Yangi O'zbekistonda ishlab chiqilgan jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi va jismoniy yetuk ijtimoiy kreativ shaxsni tarbiyalashda inson takomili, salomatlik fenomeni kabi tibbiy etnotibbiy faoliyatlari aniqlanib, uning filogenetek, fiziologik, valeologik, psixologik singari o'ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari ochib berilgan;

Sharq va G'arb etnopedagogikasidagi jismoniy yetuk shaxsga oid unikal-funksional (tibbiy-antropologik, jismoniy tarbiya, sportni takomillashtirish) xususiyatlarining o'zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanishi hamda yoshlarning

ma'naviy va ma'rifiy faolligini oshirishda ilmiy-amaliy komponentlarga tayanishi aksiologik rivojlanish qonuniyatlari asosida pragmatik tarzda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

etnopedagogik merosda jismoniy yetuklik gumanistik maqsadlarga ergashib kelishi va bu ularning kosubstansional voqeliklar sifatida inson xatti-harakatlariga, ijtimoiy burchlarini bajari shiga amaliy ta'sirini inkor qilmasligi aniqlangan;

mavzu doirasida faoliyat olib boradigan tashkilotlarning chora-tadbirlar dasturlarini amaliy jihatdan boyitishga, shuningdek, salomatlik falsafasining gumanistik mohiyatini to'g'ri tushunishga, jismoniy yetuklik fenomeni inson organizmining ma'lum bir filogenetik rivojlanish bosqichiga mosligini anglashga, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga ratsional yondashishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallari to'plamlari, xorijiy ilmiy jurnallar hamda OAK ro'yxatida keltirilgan maxsus jurnallarda chop qilingan maqolalarda keltirilgan taklif va tavsiyalar, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ifoda etuvchi g'oyalar, fikrlar, yondashuvlar salomatlik, jismoniy yetuklik haqidagi tasavvurlarni ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan boyitadi va ulardan kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlarda muhim ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa aholi salomatligi muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqot institutlari, tibbiy-ma'rifiy markazlar, ommaviy sportni targ'ib etuvchi jismoniy tarbiya maskanlari o'zining kundalik, amaliy faoliyatida, shuningdek, oliy ta'lim tizimida mavzu doirasida o'tiladigan fanlardan o'quv qo'llanmalar, darsliklar, predmet dasturlari, onlayn ma'ruzalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Salomatlik va jismoniy yetuklikning inson hayotiga, ijtimoiy kreativ faoliyatiga ta'sirini asoslab berishga qaratilgan ilmiy, amaliy tavsiya hamda takliflar asosida:

etnopedagogik merosda jismoniy yetuklik va ma'naviy yetuklikning dialektik tarzda uyg'un kelishi hamda ularning negizi o'zaro gumanistik mohiyatga ega ekanligiga oid taklif-tafsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalar va san'at asarlarining tadqiqodlari asosida SMART texnologiyalarni yaratish" mavzusidagi I-FA-2019-25 raqamli hamda "Dorul hikmat val maorif" zamonaviy virtual muzeyini yaratish" mavzusidagi PZ-2020103078 raqamli amaliy loyihalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining 2022-yil 26-iyuldagi 158/1-22-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyihalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilgan;

salomatlik falsafasining ijtimoiy faollikka xos ilmiy-nazariy, tibbiy-antropologik, ijtimoiy-falsafiy asoslari sog‘lom turmush tarzini joriy etishda va aholi salomatligini tiklashda funksional o‘ringa egalligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash” vazirligining chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, “Xonadon gigiyenasini besh yulduzli mezon asosida baholash” mavzusidagi elektron platformasini va o‘z gigiyenasini baholashiga qarab hududiy xaritani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligining 2022-yil 10-iyundagi 04-02/144-son ma‘lumotnomasi). Natijada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi va madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq dasturlar va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish ishlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda ishlab chiqilgan jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi va jismoniy yetuk ijtimoiy kreativ shaxsni tarbiyalashda inson takomili, salomatlik fenomeni kabi tibbiy etnotibbiy faoliyatlari aniqlanib uning filogenetika, fiziologik, valeologik, psixologik singari o‘ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlariga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil sentabrdagi 4-13-23-3083-son ma‘lumotnomasi). Natijada Respublikamiz yoshlarida sog‘lom madaniy hayot tarzini shakllantirishga xizmat qilgan;

Sharq va G‘arb etnopedagogikasidagi jismoniy yetuk shaxsga oid unikal-funksional (tibbiy-antropologik, jismoniy tarbiya, sportni takomillashtirish) xususiyatlarining o‘zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanishi hamda yoshlarning ma‘naviy va ma‘rifiy faolligini oshirishda ilmiy-amaliy komponentlarga tayanishi aksiologik rivojlanish qonuniyatlari asosida pragmatik tarzda asoslanganligiga doir ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2021-2022-yillarda efirga uzatilgan “Millat va ma‘naviyat”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta‘lim va taraqqiyot” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 30-maydagi 04-36-770-son ma‘lumotnomasi). Natijada yoshlarning hayot faoliyatida sog‘lom turmush tarzi va madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to‘qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Salomatlik falsafasi: ilmiy-nazariy, tibbiy-antropotsentrik va ijtimoiy-falsafiy asoslari**” deb nomlanadi. Mazkur bobda, salomatlikning ilmiy-nazariy, tibbiy-antropotsentrik va ijtimoiy-falsafiy asoslari, salomatlik fenomenini ilmiy-nazariy muammo sifatida o‘rganishdagi konseptual yondashuvlar tadqiq qilinadi. Ishda, shaxs ma’naviy-axloqiy imperativlar, salomatlikni saqlovchi an’analar va yoshlarda o‘z-o‘zini jismoniy tarbiyalashga oid tajribalari, ko‘nikmalari mavjud muayyan ijtimoiy muhitda shakllanishi, “ijtimoiy borliq ijtimoiy ongini belgilaydi” degan falsafiy fikrlardan kelib chiqib, inson va uning ijtimoiy sifatlari, jismoniy yetukligi ma’lum bir tarixiy-madaniy an’analarning, ijtimoiy-pedagogik muhit va dunyoqarashning mahsuli ekanligi tadqiq etiladi. Jismoniy yetuklik bundan istisno emas, u ma’lum bir tarixiy-madaniy va etnopedagogik tajribalarga asoslangan, isbotlangan dam olish texnologiyalariga ega muhit, dunyoqarash ta’siri natijasidir. Dissertantni fikricha, salomatlik, sog‘liqni saqlash muammolari insonni, avlodlarni doimo o‘yga, tashvishga solib kelgan abadiy mavzulardan biridir. Salomatlik to‘liq va quvonchli hayot, farovonlik va uzoq umr asosi hisoblanadi. “Tibbiyot fanining otasi”, asoschisi Gippokrat (mil. avv. 460-y. 370) shunday yozgan edi: “Gimnastika, jismoniy mashqlar, yurish har bir kishining kundalik hayotiga mustahkam kirishi kerak”¹. Bu bilan u insonning baxtiyor yashashi, uzoq umr ko‘rish salomatlikka, tananing baquvvatligiga bog‘liqdir, demoqchi. Aristotel talqiniga ko‘ra, “Hayot - harakat demakdir”². Uning “Shakllanish va yemrilish haqida” (“О возникновении и уничтожении”) degan asari borliq va inson mavjudligining asosini harakat, o‘zgarish, siljish tashkil etadi, degan g‘oyaga qurilgan. Uning fikricha, agar Platon shakllanish va yemrilishni faqat jonsiz predmetlarga, elementlarga doir narsa deb tushuntirgan bo‘lsa, aslida esa ularga sifat va o‘lish ham xos, deb yozadi³. Yangi davr falsafasining asoschisi F.Bekon esa, ilm-fanning maqsadi “inson hayotini yangiliklar va kashfiyotlar bilan mazmunli qilish”, deb bilgan. Salomatlik esa inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi voqelikdir⁴.

Bobda, jismoniy madaniyat salomatlikning ideal holati bo‘lgan sport yo‘nalishi bilan ham bog‘liqligi ochib beriladi. Maksimal natijalar, rekordlar salomatlikka erishishning, jismoniy madaniyatning eng jozibador jihati bo‘lib

¹ Qarang: Афоризмы. - Минск: Современ. литератор, 1999. С.19.

² O‘sha asar. С.194

³ Qarang: Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 3.-Москва:Мысль, 1981. С.384- 386

⁴ Qarang: Михаленко Ю.П. Ф.Бэкон о здоровье человека. // Философия здоровья. Москва: РАН, Институт философии, 2001. С. 24.

qolishi, rekordlar o'rnatish, eng yuqori natijalarni qo'lga kiritish istagi inson erishishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarning oxirgi nuqtasi emasligini, ulardan ham yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkinligini ko'rsatishi, bu ko'rsatkichlar nima va qayerda ekanligini inson bilmasligi, shu nuqtai nazardan insonning imkoniyatlari ulkan, cheksizdir, degan fikr mavjudligi tahlil etiladi. Tadqiqotchining fikricha, faqat bu imkoniyatlarni amalga oshirish uchun maxsus ijtimoiy-pedagogik dastur, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, uslubiy va me'yoriy mexanizmlar zarurligi ta'kidlanadi. Jismoniy madaniyat tizimi, salomatlik ko'rsatkichlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ifodasi hisoblanadi. Ular tarkibi murakkab bo'lgan (davlat va jamoat rahbariyati tamoyillarining kombinatsiyasi), shuningdek, turli moliyalashtirish manbalari va moddiy qo'llab-quvvatlashidan iborat, davlat byudjeti, davlat mablag'lari, korxonalar, kasaba uyushmalari, kooperativ jamiyatlar, homiylik va boshqalar o'ziga xos tizimli yordam va boshqarish hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ular xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy, rivojlangan ishlab chiqarish tarmog'ini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasi xodimlarining mehnati masalan, sport inshootlari, asbob-uskunalar, poyabzal, kiyim-kechaklar moddiy xususiyatga ega. Ammo bu moddiy soha insonning salomatligini mustahkamlashga, jismoniy tarbiya va madaniyat tizimini samarali tashkil etishga qaratilgan¹.

Dissertatsiyada, salomatlikni mustahkamlash uchun jismoniy madaniyatni tizimli va kompleks tarzda qo'llab-quvvatlovchi subyekt, institut davlat hisoblanishi, davlat jismoniy madaniyat sohasining zarur anjomlar, asbob-uskunalar va mutaxassislar bilan ta'minlanishni tashkil etishi ochib beriladi. Ijtimoiy shart-sharoitlar faqat kishilarning jismoniy madaniyati yoki sport bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratadi, qolgani shaxsning, kishilarning xohish-istaklariga va qiziqishlariga bog'liq. Shuning uchun odamlarga jismoniy mashqlarning har qanday shakllarini yoki sog'lomlashtirish usullarini taklif qilishdan oldin, ularning qiziqish va istaklarini o'rganish va shakllantirish zarur bo'ladi. Bugungi odam o'tgan asrda yashagan odam emas, o'sha davrlarda sport va dam olish majmualari, inshootlari, klublari kam edi, hozirgi davrda shaxs ulardan o'ziga ma'qul keladiganini tanlash imkoniga ega. Albatta, ijtimoiy-iqtisodiy omillar odamlar ongi va manfaatlariga ta'sir qiladi, lekin salomatlikni mustahkamlash, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, bu borada zarur ko'nikmalarga ega bo'lish har doim shaxsning qiziqishlari va intilishlariga bog'liq. "Men aniq bilamanki, - deb yozadi taniqli psixoterapevt va o'zini-o'zi sog'lomlashtirish metodikasining muallifi, asoschisi G.N.Sitin, - sog'likni yaxshilash g'oyasidan ilhomlangan inson tabiatning barcha elementlaridan, barcha qarama-qarshi kuchlaridan ustun turadi va barcha qarshi ta'sirlarga qaramasdan, sog'lom turmush tarzini saqlaydi. Salomat bo'lish istagidan, g'oyasidan ilhomlangan inson o'z kuchi bilan barcha kasalliklardan ustun turadi va chindan ham yengilmas, kuchli, salomat kishiga aylanadi"². Salomatlikni, sog'lom turmush

¹ Qarang: Алламуратов Ш.И., Пожидаева Т.Ф., Хасанова Л.Ш., Савочкин М.Б. Физическая культура и здоровый образ жизни. - Тошкент: ТИТЛП, 2011. С.31.

² Ситин Г.Н. Животворящая сила. Помогите себе сам. - Новосибирск: Предприятие "Вен Мер", 1994. С. 91-93

tarzini tashkil etishni ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarga bog'lash mumkin. Jismoniy tarbiya, sport ilmi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi huquqiy mexanizmlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ishda, tibbiy-antropotsentrik izlanishlarda yurak-tomir tizimining normal ishlashi tana vazni, og'irligi, hatti-harakatning tempi, uxlash va ishlash ritmi, asab tizimi, mehnat va dam olish xususiyatlari, reproduktiv salomatlik kabi omillarga bog'liqligi ham ta'kidlanadi. Demak, yurak-tomir tizimi faqat uning funksional ishlashi mahsuli emas, u butun organizm va undagi qismlar ishlashining natijasi hamdir. Agar odamning oyog'i og'riyotgan bo'lsa, u bu og'riqni butun asabi, vujudi bilan his qiladi, natijada ushbu og'riq asablar orqali yurak-tomir tizimini bezovta qiladi. Shuning uchun tananing sog'ligi, qismlarning normal ishlashi yurak-tomir tizimiga, shuningdek, butun salomatlikka ta'sir etadi. Bu aslida tizimlarning bir-biriga bog'liqligini, inson organizmi esa, butun sistemasi sifatida, normal ishlaganidagina jismoniy yetuk bo'lishini anglatadi. Tashqi nafas olishni tadqiq etish usuli tiriklikni, ichki organlarning tashqi ta'sirlar bilan muvofiqligini, morfofunktsional tizimlarning organizm uchun kislorodni yetarli darajada yetkazib berilayotganini bildiradi. Nafas tizimi yurakning urishi, bioritmning tekisligi va o'pkaning jismoniy yukni ko'tara olishini ham ko'rsatadi. Organizmga tushadigan ortiqcha yuk nafasni siqib qo'yadi, shaxsda kuch qoldirmaydi, u darrov charchaydi yoki o'pka yukni ko'tarishni bajarolmaydi, nafas olish ritmi buziladi. Jismoniy yetuk, baquvvat organizm tashqi kislorodni ichki organlarga yetkazadi, ularning, ayniqsa, o'pkaning normal ishlashiga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan nafas organlarining normal ishlashi, jismoniy yukni ko'tarishga xizmat qilishi salomatlik belgisi hisoblanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Jismoniy yetuklik va salomatlik: sharqona va g'arbona etnopedagogik tajribalar”** deb nomlanadi. Mazkur bobda, jismoniy yetuklik va salomatlik fenomenlarining etnopedagogik (etnodidaktik) va etnotafakkuriy asosga ega ilmiy masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, asosiy e'tibor etnopedagogik tajribalar, an'analar va ularning xalq ijodi asarlaridagi in'ikosiga qaratiladi. Sog'lomlashtirish instituti sog'liqni saqlash sohasida o'zini-o'zi jismoniy rivojlantirishning muhim komponentlari va texnologiyalari ekani bilan ajralib turadi. Sog'lomlashtiruvchi komponent subyekt (murabbiy, o'qituvchi, trener, muassasa) kasbiy faoliyatida majburiy minimumdir va hayot sharoitlariga, kundalik faoliyatiga e'tibor berish orqali obyekt (yoshlar, aholi, shaxslar)ni faollashtirish subyekt faoliyatining maksimumidir¹. Biroq sog'lomlashtiruvchi komponentni “ta'lim minimumi”ga kamaytirish mumkin emas, chunki sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va madaniyat butun pedagogik tizimning, pedtexnologiyaning ijtimoiy mohiyatini ifoda etadi. “Majburiy minimum” jismoniy ta'lim-tarbiyaning barcha pedagogik usul va vositalaridan keng foydalanishni talab qiladi, u yosh avlodni tarbiyalashning strategik maqsadi bilan tarbiyaviy ta'sirni yanada samarali va

¹ Qarang: Формирование здоровья детей и подростков в системе непрерывного образования. Коллективная научная монография. Под ред. Т.Н.Ле-ван. - Новосибирск: СибАК, 2013. С. 9-15.

barkamol qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Salomatlik fenomenining tarkibiy qismi bo'lgan jismoniy tarbiya, jismoniy yetuklik sog'lom turmush tarzi - jismoniya madaniyat ko'nikmalarini va ijobiy xulq-atvor motivatsiyasini shakllantirishi tufayli e'tiborli voqelikdir. Jismoniy tarbiya va jismoniy yetuklik sog'lom turmush tarziga, kundalik me'yorga aylanib, shaxs hayotiga, faoliyatiga optimizm baxsh etadi, undagi pozitiv jihatlarga keng yo'l ochadi¹. Tadqiqotda, jismoniy yetuklikning ijtimoiy-falsafiy masalalarini etnopedagogik tajribalar nuktai-nazaridan tadqiq etilishi, mazkur yo'nalishdagi izlanishlar asosan zamonaviy ta'lim-tarbiyani mustahkamlashga, zamonaviy pedtexnologiyani kengroq joriy etishga qaratilganligi, zamonaviy jismoniy tarbiya va madaniyat etnopedagogik tajribalarni deyarli hisobga olmasligi, u bu tajribalarni ideal sifatida e'tirof etishi, aslida bu ham muhim, biroq milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi, o'z xalqi va vatani osoyishtaligini, rivojlanishini o'ylovchi shaxs uchun etnopedagogik tajribalar ko'proq zarurligi ta'kidlanadi.

Etnopedagogikadagi tajribalar shunchaki tarixiy-madaniy va ijtimoiy-tarbiyaviy meros emas, u millat, xalq ideallari ifodasidir. Zamonaviy jismoniy tarbiya va madaniyat ko'proq shaxsiy fiziologik va morfofiziologik parametrlarni nazarda tutadi, ularda milliy tajribalar, etnopedagogik xususiyatlar o'z aksini topavermaydi. Hatto milliy atamalar bilan nomlanadigan musobaqalar (masalan, kurash) ham modernizatsiyalashgan etnojismoniy mashqlarga aylangan. Ularda qayerda milliylik, qayerda transmilliylik borligini topish qiyin. Aslida bu jismoniy mashqlar va jismoniy tarbiya azaldan umuminsoniy xususiyat kasb etib kelganini ko'rsatadi.

Ishda, G'arb va Sharq etnopedagogikasidagi jismoniy yetuklikka oid tajribalar, xususiyatlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Har ikkala yo'nalish ham inson organizmining morfofunktional va tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarbiyaviy tajribalarni o'zida mujassam etadi. Biroq ijtimoiy-tarixiy jarayonlar, etnik taraqqiyot jismoniy yetuklik masalasiga har xil yondashishni keltirib chiqargan. Qahramonlik eposlaridagi obrazlar bir tomondan, jismonan baquvvat, kuchli vatanparvar, xalqparvar sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular etnosning ijtimoiy talablari va da'vatlariga ergashadi, o'zidagi axloqiy -ma'naviy fazilatlarni etnik qadriyatlar tarzida namoyon qiladi. Etnosda qaror topgan ijtimoiy an'analar qahramonlarni, ularning xatti-harakatlari va intilishlarini belgilab beradi, aynan shu belgisi tufayli qahramonlar hayoti etnopedagogik mohiyat kasb etadi. Etnopedagogika xalq maqollari, matallari, ertaklari, Morf hikoyatlari va tajribalaridagi ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlarni, g'oyalarni o'z ichiga oladi. Xalq ijodiga taalluqli har qanday fikrdan, asardan va ma'naviy merosdan etnopedagogikaga taalluqli mavzu topsa bo'ladi. Ammo bizni jismoniy yetuklik masalalari qiziqtirgan, tadqiqotimiz maqsadi ham ana shu mavzu atrofidadir.

Zamonaviy pedagogika etnopedagogik tajribalarga tayanganida milliy tarbiya maqsadlariga muvofiqlashadi. Zamonaviy jismoniy tarbiya va madaniyat etnopedagogik an'analarni rad qilmaydi, unda, mavjud milliy xususiyatlarga

¹ Qarang: O'sha asar. C.15

tayangan holda, modernizatsiyalashuv jarayonlari ham kechishi tabiiy holdir. Insondagi umuminsoniy xususiyatga ega fiziologik va morfofiziologik belgilar jismoniy mashqlarni ham ushbu belgilarga, xususiyatga muvofiq tashkil etishga undaydi.

Ishda, etnopedagogika xalq maqollari, matal va aytishuvlari, xalq kitoblari, latifalar kabi og‘zaki ijod namunalaridagi ijtimoiy-tarbiyaviy fikrlarni, g‘oyalari haqida ham fikr yuritiladi. Mazkur merosda xalqlarning hayotiy tajribalari, bolalar tarbiyasi va jamiyatda qaror toptirilishi zarur bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy ideallar o‘z mujassamini topgan. Masalan, o‘zbek xalq maqollari va matallari ichida muammoga oidlari ko‘plab topiladi. “Sog‘ tanda - sog‘lom aql”, “Salomatlik - tuman boylik”, “Sog‘ yuray desang - mehnat qil”, “ Aftini ko‘r - holini so‘r”, “Molning tashiga emas, tishiga boq”, “ O‘g‘ling bo‘lsa el bo‘lsin, el bo‘lmasa sher bo‘lsin”, “Kelinni beliga qarab emas, fe‘liga qarab tanlaydilar”, “Ko‘rk - to‘rt kunlik, salomatlik - umrlik”. Mazkur merosda insonga loyiq, jamiyatda qaror topishi zarur bo‘lgan axloqiy-ma‘naviy ideallar, gumanistik maqsadlarni o‘z ustiga olgan ijtimoiy-falsafiy obrazlar tasvirlanadi. Ular shunchaki, pand-nasihatlar, u yoki bu hayotiy vaziyatlar bayoni emas, ularda xalq hayotini, idealini o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar to‘plangan. Masalan, mol bozoriga chiqqan sodda kishi molning tashqi ko‘rinishiga tikiladi, tanasi kelishgan, tuklari silliq molga savdogar bo‘ladi. Bu har doim ham ko‘ngildagi natija keltirmaydi, shuning uchun xalq maqolida, avvalo, molning, otning tashiga emas, tishiga qarash tavsiya etiladi. Otning tishi uning jismoniy holatini, sog‘ligini ifoda etadi. It, kuchuk va boshqa jonivorlarni xarid qilganda ham xalq tajribalariga, an‘analariga rioya etadigan kishi, avvalo, ularning tishini ko‘radi, tekshiradi.

Tadqiqotchining fikricha, xalq eposlari va ertaklaridagi qahramonlarning tashqi ko‘rinishi va ma‘naviy-axloqiy olami inson kamolotiga taalluqli idealni tasvirlagani uchun ham zamonaviy pedagogika unga tayanadi. Demak, etnopedagogika zamonaviy ijtimoiy-tarbiyaviy, shu jumladan, jismoniy madaniyatning ham negizini tashkil etadi. Bu o‘rinda ikki jihat ko‘zga tashlanadi: birinchisi, xalq qahramonlari etnografik va tarixiy-madaniy tajribalarni o‘zida mujassam etadi, xalq madaniyatining butun boyliklari, tajribalari ana shu obrazlardagi xislatlardadir. Xalq qahramonlari - etnopedagogik simvollardir. Hech bir etnopedagogika ushbu simvollarsiz bo‘lmaydi. Ikkinchisi, etnopedagogika qotgan tajribalar, retseptlar va tavsiyalar yig‘indisi emas, u zamonaviylashish, modernizatsiyalashish xususiyatiga ega. Jismoniy tarbiyadagi tajribalar har bir avlod uchun muhim, ammo ushbu xususiyat yangi davr talablari va usullari bilan boyitilganida kishiga, tarbiyalanuvchiga zavq va kuch beradi. O‘z quvvatini namoyish qilish uchun endi jang maydonlariga borish, dushman bilan olishish, uni o‘ldirish shart emas, bugun jismoniy tarbiya sport zallariga va stadionlarga qatnashga undaydi. Biroq, buni esdan chiqarmaslik kerakki, etnopedagogikadagi jismoniy yetuk xalq qahramonlariga oid fazilatlar (gumanizm, altruizm, vatanparvarlik, elparvarlik, mehnatsevarlik, adolatpeshalik) zamonaviy pedagogika uchun ham ideal bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun etnopedagogika bilan

zamonaviy pedagogika tajribalarini bir- biriga qarshi qo'ymay, ularni, jismoniy yetuk shaxslarni tarbiyalash maqsadida, uyg'unlashtirish zarur.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, **“Yangi O'zbekistonda jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi: jismoniy yetuk va ijtimoiy kreativ yoshlarni shakllantirishning etnodidaktik (pedagogik) muammolari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda yangi O'zbekistonda jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish, jismoniy yetuk va ijtimoiy kreativ yoshlarni shakllantirishning konseptual masalalari tadqiq etiladi. Jismoniy sog'lom va ijtimoiy kreativ shaxslar amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashishi mumkin. Shuning uchun bobda jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi.

Tadqiqotda, jamiyat jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasining yadrosini salomatlik falsafasi tashkil etishi haqida ham so'z yuritiladi. Salomatlik falsafasi jamiyat va sotsium a'zolarining ijtimoiy hayotda faol qatnashishlari uchun zarur bo'lgan jismoniy, psixofiziologik va morfofunktsional fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan konseptual g'oyalar jamuljamidir. Salomatlik falsafasi hayot falsafasining tarkibiy qismi sifatida inson va jamiyatni jismonan faol qilish, ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur fazilatlarga, ayniqsa, sog'lom yashashga undash vazifasini bajaradi. Ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyot turli sun'iy va tabiiy to'siqlarga duch keladi, ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun jamiyatga sog'lom avlod va salomatlikni e'zozlovchi shaxslar kerak. “Salomat bo'lmay, - deb yozadi Seneka, - sen hayot aziyatlariga, to'siqlariga chiday olmaysan. Jismoniy salomatlik ruhiy salomatlikdan kam emas, ularni oqilona uyg'unlashtirib niyat, o'yingga yetasan. Bu Epiktetning ham tilagi”¹. Demak, jamiyatni jismoniy madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi salomatlik falsafasiga tayanib, shaxsni ijtimoiy kreativ, faol va sotsiumni sog'lom turmush tarzini qaror toptirgan ijtimoiy makon bo'lishini istaydi.

Bobda, etnopedagogikaga oid xalq asarlaridagi bosh qahramonlarning hayoti, faoliyati, fazilatlari ham ana shu talablar mahsuli ekanligi tadqiq etiladi. Tadqiqotchini fikricha, jismoniy, ham ma'naviy yetuklik timsoli, yoshlar uchun hayotiy ideal bo'la olishi hamda inson kamoloti to'g'risida gapirganda uning ruhiyatiga, hissiyotiga, badiiy tafakkuriga ta'sir etuvchi estetik omillarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanib o'tiladi. Etnoestetik omillar, falsafa fanlari doktori, professor O.Nishonova yozganidek, xalqning go'zallik, nafosat, ezgulik, qahramonlik, axloqiylik haqidagi asrlar davomida shakllangan an'analari, tushunchalari va badiiy estetik asarlar, artefaktlar yaratish tajribalarini ifoda etadi². Bu etnoestetik artefaktlar, qadriyatlar insondagi tashqi va ichki go'zallikni tarannum etadi, uni badiiy-estetik ijod bilan shug'ullanishga undaydi. Badiiy-estetik ijodning ushbu funksiyasini hisobga olib davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasiga, kamolotiga oid besh tashabbusning birinchisi qilib yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini

¹ Сенека.А.Л. Нравственные письма к Луцилию. - Кемерово, Кемеровское книж. издательство, 1993. С.238-239

² Qarang: Нишонов О. Халқ маданияти ва унинг этноэстетик моҳияти. - Тошкент: Фан, 2011. 14-15 б.

